TRANS-KASPIY XALQARO TRANSPORT YO'LAGI (TITR): MARKAZIY OSIYO UCHUN IMKONIYATLAR VA KELTIRIB CHIQARISHI MUMKIN BO'LGAN XAVFLAR

Xojimatov Abduvoris Vali o'g'li,

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

Xalqaro munosabatlar yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Musurman Xurramov,

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi Xalqaro munosabatlar kafedrasi dotsenti v.b.,t.f.f.d.(PhD)

Anotatsiya Mazkur maqolada Trans-Kaspiy xalqaro transport yo'lagi (TITR)ning shakllanishi va rivojlanishi sharoitida Markaziy Osiyo davlatlarining iqtisodiy va geosiyosiy salohiyatiga ko'rsatayotgan ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu transport koridorining mintaqa uchun yaratadigan imkoniyatlari bilan bir qatorda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf va tahdidlar ekspertlar qarashlari, tahliliy yondashuv va prognozlar asosida yoritib beriladi.Trans-Kaspiy xalqaro transport yo'lagi (TITR)ning shakllanishi, rivojlanish dinamikasi hamda uning Markaziy Osiyo mintaqasidagi davlatlar iqtisodiy va geosiyosiy salohiyatiga ko'rsatayotgan ta'siri kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqotda ushbu transport koridorining Yevropa va Osiyo o'rtasidagi muqobil logistika yo'lagi sifatidagi ahamiyati, ayniqsa global geosiyosiy o'zgarishlar va transport yo'nalishlarining diversifikatsiyasi jarayonida ortib borayotgan roli yoritiladi.

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo mamlakatlari, Yevropa Ittifoqi, Xitoy, Global

Gateway, yashil energetika, yuk tashish, transport infratuzilmasi, mintaqaviy integratsiya, byurokratik to‘siqlar, Qorabog‘ mojarosi.

Kirish

Trans-Kaspiy xalqaro transport yo‘lagi (keyingi o’rinlarda-TITR) ─ uzunligi taxminan 7 800 km bo‘lib, Osiyo va Yevropani Qozog‘iston, Kaspiy dengizi va Janubiy Kavkaz orqali bog‘laydigan bugungi kundagi global, iqtisodiy va geosiyosiy sharoitlarda tobora muhim ahamiyat kasb etib borayotgan xalqaro transport tizimlaridan biridir. Ushbu koridor Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun bir qancha imkoniyatlar eshigini ochish bilan birgalikda, muammo va xavflar ham keltirib chiqarishi mumkin.

Trans-Kaspiy xalqaro transport yo‘lagi Markaziy Osiyo mamlakatlari, xususan O‘zbekiston, Qozog‘iston va Turkmaniston kabi davlatlarning Yevropa Ittifoqi bilan transport-logistika, savdo-iqtisodiy va strategik hamkorligini mustahkamlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. TITR orqali Xitoydan Yevropaga yuk tashishning yangi, samarali yo‘li paydo bo‘ldi. An’anaviy Rossiya orqali o‘tadigan Shimoliy yo‘lga muqobil ravishda ishlab chiqilgan bu yo‘lak, ayniqsa, geosiyosiy keskinliklar fonida dolzarb tus olmoqda. Rossiya-Ukraina urushi boshlanganidan so‘ng, G‘arb mamlakatlari tomonidan Rossiyaga nisbatan joriy etilgan sanksiyalar natijasida TITRning nisbatan ustunliklari yanada kuchaydi. Bu holat Yevropa Ittifoqini Markaziy Osiyo davlatlari bilan yangi transport yo‘laklarini rivojlantirishga qiziqishini orttirdi. **“**Ushbu transport tarmog’i orqali biz mintaqani Yevropa bilan bog’lashimiz mumkin. Bunday yo’laklarni uzluksiz va samarali boshqarish rivojlanish uchun yanada ko’proq imkoniyatlar yaratishga yordam beradi. O’zbekistondan tashqari, Turkmaniston ham ushbu tarmoqda juda muhim mamlakatga aylanishi mumkin. Bu

bizning mamlakatlar o’rtasida bojxona aloqalarini o’rnatishimizga va chegaralarni kesib o’tish uchun ishonchli va funksional tizimlar yaratishga imkon beradi”,- deydi Yevropa komissiyasining xalqaro hamkorlik bo‘yicha Bosh direktori bosh maslahatchisi Henrik Hololey.[1]

Biroq, TITR bilan bog‘liq bo‘lgan xavf va muammolarni ham e’tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi. Avvalo, infratuzilmaning nomukammalligi, byurokratik to‘siqlar, bojxona va transport standartlarining birxillashmaganligi, raqamlashtirish bo’yicha muammolar, kiberxavfsizlik muammolari yuk tashish jarayonlarida murakkablik tug‘diradi. Kaspiy dengizi orqali yuk tashish bo‘yicha logistik operatsiyalar hali ham yuqori xarajatlilik va koordinatsiyalarning noaniqligi bilan ajralib turadi. Bundan tashqari, TITRda ishtirok etayotgan davlatlar o‘rtasidagi siyosiy kelishmovchiliklar yoki beqarorliklar ham yo‘lakning uzluksiz ishlashiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Masalan, Qorabog‘ mojarosi yoki Eron bilan bo‘lgan geosiyosiy ziddiyatlar TITR uchun muayyan xavf tug‘diradi. Ta’kidlash kerakki, TITR orqali yuk tashishning narxlari hali ham raqobatchilarga nisbatan yuqori bo‘lib qolmoqda, bu esa uni keng imkoniyatli transport yo‘lagi sifatida shakllanishiga to’sqinlik qilishi mumkin.

Yana bir xavf shundaki, TITRning rivojlanishi tashqi kuchlarning Markaziy Osiyo geosiyosatiga ta’sirini kuchaytirishi mumkin. Yevropa Ittifoqi, Xitoy, Turkiya va boshqa manfaatdor davlatlarning mintaqadagi faolligi siyosiy raqobatga olib kelishi mumkin. Bu esa o‘z navbatida, mintaqada geosiyosiy muvozanatning o‘zgarishiga sabab bo‘lishi ehtimoldan xoli emas.

Shunday bo‘lsa-da, TITR imkoniyatlari xavflaridan ustun turadi. Mintaqa davlatlari bu yo‘lakni rivojlantirish orqali o‘z suveren manfaatlarini ilgari surishlari, iqtisodiy mustaqilliklarini mustahkamlashlari mumkin. TITR O‘zbekiston uchun Yevropa Ittifoqi bilan ko‘p qirrali hamkorlikni rivojlantirish, yangi texnologiyalar va

investitsiyalarni jalb etish, ekologik toza transport tizimlariga oʻtish imkonini beradi.

TITRning rivojlanishi, birinchidan, mintaqadagi davlatlar oʻrtasidagi hamkorlikni kuchaytiradi. Masalan, Qozogʻiston, Oʻzbekiston va Ozarbayjon oʻrtasida transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan qoʻshma loyihalar amalga oshirilmoqda. Bu mintaqada nafaqat iqtisodiy oʻsishga, balki siyosiy barqarorlikka ham xizmat qiladi. Ikkinchidan, TITR Yevropa Ittifoqining "Global Gateway" tashabbusi bilan hamohang boʻlib, u Yevropa va Osiyo oʻrtasida barqaror, xavfsiz va samarali bogʻlanishni taʼminlashni maqsad qilgan. Siyosatshunos Eduard Poletaevning ta'kidlashicha, “TITR Yevropa va Xitoy oʻrtasidagi savdo uchun muqobil yoʻlak boʻlib, ayniqsa, Rossiyaga qarshi sanksiyalar kuchaygan sharoitda ahamiyati ortib bormoqda. U Qozogʻistonning geografik joylashuvi tufayli transport-logistika salohiyatini rivojlantirishga intilayotganini qayd etadi”.[2]

TITR nafaqat iqtisodiy, balki ekologik jihatdan ham maqbul variant sanaladi. Dengiz orqali yetkazib berishga nisbatan kamroq karbonat chiqindilariga sabab boʻladigan bu yoʻl Yevropa Ittifoqining yashil energetika va barqaror rivojlanishga oid siyosatiga mos keladi. Shu jihatdan TITR Yevropa Ittifoqining yashil kelajak strategiyasi bilan uygʻunlashadi. Ushbu koridor orqali yuk tashish vaqti anʼanaviy yoʻllarga nisbatan sezilarli darajada qisqaradi. Bu esa savdo jarayonlarining tezlashishiga, mahsulotlar narxining kamayishiga va umumiy iqtisodiy faollikning oshishiga olib keladi. Ayniqsa, Oʻzbekiston uchun bu yoʻlak Yevropa bozorlariga chiqishda yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Shu oʻrinda aytish joizki, TITR doirasidagi hamkorlik nafaqat iqtisodiy, balki madaniy va ijtimoiy sohalarni ham qamrab olmoqda. Transport infratuzilmasining rivojlanishi orqali turizm, talabalar almashinuvi va boshqa koʻplab yoʻnalishlarda hamkorlik qilish imkoniyatlari paydo boʻlmoqda. Bu esa mintaqaviy integratsiyani mustahkamlab, umumiy taraqqiyotga xizmat qiladi.

Xulosa

Transkaspiy xalqaro transport yoʻlagi Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun katta strategik va iqtisodiy imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Bu yoʻlak mintaqaning geoiqtisodiy salohiyatini oshirish, Yevropa bozorlariga chiqishni tezlashtirish hamda tranzit davlat sifatida mavqeini mustahkamlash imkonini beradi. TITR orqali yangi ish oʻrinlari yaratilishi, infratuzilmaning rivojlanishi, savdo va investitsiyaviy muhitning yaxshilanishi mintaqaviy taraqqiyotga xizmat qiladi. Albatta, ayrim infratuzilmaviy va siyosiy xavf-xatarlar mavjud, biroq bu yoʻldagi hamkorlik va puxta rejalashtirilgan islohotlar orqali bu muammolarni samarali bartaraf etish mumkin. Shu bois, TITR Markaziy Osiyo uchun nafaqat transport yoʻlagi, balki barqaror taraqqiyot va mintaqaviy integratsiyaga yetaklovchi strategik imkoniyatdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. https://eurasiamagazine.com/reality-or-fiction-enhancing-connectivity-the-role-of-the-trans-caspian-international-transport-route-in-central-asia

2. https://www.adb.org/sites/default/files/publication/743006/adbi- unlocking-transport-connectivity-092921-web.pdf

3. https://www.transportcorridors.com

4. https://www.gazeta.uz/oz/2024/11/09/middlecorridor/

5. EU Trade Relations with Central Asia', European Commission

6. Central Asia emerging from the shadows European Union – Central Asia relations in evolving Eurasian geopolitics. Niels Drost, Giulia Cretti , Babette van Giersbergen.

7. U.S. Foreign Policy – Middle East & North Africa // https://world101.cfr.org/rotw/middle-east/us-foreign-policy

8. U.S.Strategic Reach in the Middle East – Institute for Policy Studies // https://ips-ds.org/us_strategic_reach_in_the_middle_east

9. What to do – and what not to do – in the Middle East // https://www.brookings.edu/articles/what-to-do-and-what-not-to-do-in-the-middle-east

10. 30 years later, Desert Storm remains a powerful influence on Air, Space Forces https://www.af.mil/News/Article-Display/Article/251238/30-years-later-desert-storm-remains-a-powerful-influence-on-air-space-forces

[1] Gazeta.uz. (2024, November 9). *Transkaspiy (Middle Corridor) yo‘lagi O‘zbekiston uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda*. https://www.gazeta.uz/oz/2024/11/09/middlecorridor/

[2] Polettaev, E. (2024, September 3). *Politolog rasskazal o perspektivakh Transkaspiy skogo mezhdunarodnogo transportnogo marshruta (TMTM)*. Rail-news.kz. https://rail-news.kz/ru/cargo-transportation/18443-politolog-rasskazal-o-perspektivax-tmtm.html